

Yuk jo'natuvchining yo'riqnomasini to'ldirish bo'yicha QO'LLANMA

(Shipper's letter of instruction for issuing air waybill)

("O'zbekiston havo yo'llari" MAK havo yo'llarida yuk tashish qoidalaridan ko'chirma 2013-y., (ikkinchi nashr))

1. Yuk jo'natuvchining yo'riqnomasi standart shakl bo'lib, tashuvchiga yoki uning agentiga aviayukxatini to'ldirish uchun zarur bo'lgan, yuk haqidagi to'liq ma'lumotlarni yig'ish uchun mo'ljallangan. Ushbu yo'riqnoma yuk jo'natuvchi tomonidan yukni topshirishdan oldin yozma shaklda – "**Yuk jo'natuvchining yo'riqnomasi**" standart blankida to'ldiriladi va unda yuk jo'natuvchi tomonidan aviayuk xati to'ldirish uchun talab etiladigan barcha ma'lumotlar bo'lishi shart.

2. Yuk jo'natuvchining yo'riqnomasidagi yuk ta'rifi Eksport deklaratsiyasi, tijorat invoysi, import litsenziyasi va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos bo'lishi kerak. Xavfli yuklar ta'rifi ham shuningdek uning to'liq va to'g'ri nomi, tegshli markirovka yorlig'ida ko'rsatilgan xavflilik klassini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

3. Yuk jo'natuvchining yo'riqnomasi aviayukxatini to'ldirish uchun zarur bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va to'ldirilishi kerak bo'lgan quyidagi bo'limlardan iborat:

(3-01-rasmga qarang):

(1) SHIPPER (Yuk jo'natuvchi)

Yuk jo'natuvchining to'liq nomi va manzilini kiriting

(2) - CONSIGNEE (Yuk oluvchi)

Agar yuk oluvchi jismoniy shaxs bo'lsa, uning FIO va pasport raqamini kiritish kerak.

Yuk oluvchining to'liq nomi va manzilini kiriting. Manzilni ko'rsatganda quyidagilar kiritilishi kerak: (xonadon, uy, shahar, pochta indeksi, mamlakat, telefon raqami).

(3) - AIRPORT OF DEPARTURE (Jo'natish aeroporti)

Jo'natish aeroportining nomini yoki shahar nomini ko'rsatish kerak.

(4) - AIRPORT OF DESTINATION (Manzil aeroporti)

Manzil aeroportining nomini yoki shahar nomini ko'rsatish kerak.

(5) - REQUESTED ROUTING (So'raladigan yo'nalish)

Ushbu katakda yuk jo'natuvchi yukni tashish uchun alohida sabablari bo'lsa, maxsus yo'nalishni ko'rsatishi mumkin. Bunday holda yuk jo'natuvchiga xabar bermasdan turib yo'nalishni o'zgartirish mumkin emas.

(6) - REQUESTING BOOKING (So'raladigan bronlash)

Ushbu katakda yuk jo'natuvchi yuk uchun muayyan qatnovda bronlashni so'rashi mumkin.

(7) - COMPANY HEADING (Aviakompaniya nomi- MAK logotipi)

Aviakompaniya nomi ostida quyidagi mazmundagi deklaratsiya joylashadi:

"Ushbu oqrali bizning nomimizdan bu yerda aytilgan yukni olish, aviayukxatini hamda boshqa zarur hujjatlarni rasmiylashtirish va imzolash, Shartnomadagi sizning shartlaringizga muvofiq yukni jo'natishni topshiraman.

Ushbu orqali mazkur yuk partiyasi lozim darajada nomlangan. Yuk jo'natmasining istalgan qismida xavfli yuk bo'lsa, yukning buqismi Xavfli yuklarni tashish qoidalariga muvofiq tegishli tarzda tashishga tayyorlanishi kerak."

(8) - MARKS AND NUMBERS (Markirovka va tartib raqamlari)

Yuk jo'natuvchi qadoqda ko'rsatilgan markirovka turi (belgisi) va tartib raqamini ko'rsatishi kerak.

(9) - NUMBER AND KIND OF PACKAGES (o'ramlar soni va turi)

Jo'natiladigan yukdagi joylar yoki o'ramlar sonini ko'rsatish kerak. O'ram turini (masalan qog'oz quti, yog'och quti va b.) ko'rsatish kerak.

Agar yuk turli tovarlar yoki turlicha qadoqdagi o'ramlardan iborat bo'lsa, yuk jo'natuvchi har bir tovarning o'ramlar sonini alohida, yoki har bir turdagi o'ramlarning turi va sonini sanab o'tishi kerak.

(10) - DESCRIPTION OF GOODS (Yuk tavsifi)

Ushbu katakda yuk tavsifi berilishi lozim, u bojxona xodimlari yukning tarkibini aniqlay oladigan darajada aniq bo'lishi kerak.

Yukka tavsif berilayotganda umumlashma atamalardan foydalanmaslik talab etiladi, masalan: "EHTIYOT QISMLAR", "TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI". Ularning o'rniga masalan: "AVTOMOBILLAR UCHUN EHTIYOT QISMLAR", "ERKAKLAR KOSTYUMI" deb ko'rsatish kerak.

Xavfli yuk, tirik hayvonlar, birlashtirilgan yoki maxsus ishlov berish talab etiladigan yuk tashilgan holda maxsus axborot talab etiladi.

Agar alohida toifadagi xavfli yuk xavfsiz bo'lmagan (masalan, quruq muz) yuk bilan birga joylashtirilsa, unda xavfli yuk alohida va birinchi o'rinda ko'rsatiladi.

Yuk jo'natuvchi shuningdek tovarning kelib chiqish mamlakatini va Xalqaro tovar klassifikatoriga muvofiq tovar kodini ko'rsatishi mumkin.

(11) - GROSS WEIGHT (Umumiy og'irligi)

Yuk jo'natuvchi yukning umumiy og'irligini kilogrammlarda (kg) ko'rsatishi kerak.

Agar turli nomdagi alohida yuk o'rinlari ko'rsatilsa, unda umumiy og'irlik ham ko'rsatilishi kerak.

Yuk jo'natuvchi tomonidan ko'rsatilgan yuk og'irligi aviakompaniya tomonidan tekshirib ko'rilishi kerak.

(12) - MEASUREMENT (Yuk o'lchamlari)

Yukning eng uzun, eng baland va eng keng o'lchamlari ko'rsatilishi talab etiladi. Tashuvchi ko'rsatilgan o'lchamlarni tekshirib ko'rishi shart.

(13) - Ushbu bandeda uchib ketish punktida yukni tashish uchun haq to'langanligi haqidagi ma'lumot ko'rsatiladi – PREPAID, agar haq yukni oluvchi tomonidan to'lansa – COLLECT bandeda bu ma'lumot qayd etiladi.

(14) - OTHER CHARGES AT ORIGIN (Jo'nash punktida boshqa yig'imlar)

Yuk jo'natuvchi tomonidan qo'shimcha yig'imlar oldindan uchib ketish punktida – PREPAID to'lanadimi, yoki yukni oluvchi tomonidan manzil aeroportida – COLLECT to'lanadimi, ko'rsatilishi kerak.

(15) - INSURANCE - AMOUNT REQUESTED (Sug'urta – belgilangan summa)

Agar aviakompaniya sug'urta xizmatlarini ko'rsatsa, unda yuk jo'natuvchi tomonidan ushbu bandeda sug'urta summasi ko'rsatiladi.

(16) - DECLARED VALUE FOR CARRIAGE (tashish uchun e'lon qilingan qiymat)

Yuk jo'natuvchi yukning tashish uchun qiymatini e'lon qilishi mumkin. Agar narx e'lon qilinmasa, NVD" ("No Value Declared" – qiymati e'lon qilinmagan holda) kodi qo'yiladi.

(17) - DECLARED VALUE FOR CUSTOMS (bojxona uchun e'lon qilingan qiymat)

Yuk jo'natuvchi yukning bojxona uchun qiymatini e'lon qilishi mumkin. Agar bunday narx e'lon qilinmasa, "NCV" ("No Commercial Value" – tijorat qiymati e'lon qilinmagan holda) kodi qo'yiladi.

(18) - HANDLING INFORMATION AND REMARKS (Yukka ishlov berish haqida axborot va izohlar)

Ushbu katakda maxsus toifadagi yukka ishlov berish bo'yicha axborotlar kiritiladi.

Bundan tashqari, yuk jo'natuvchi o'zidan tashqari yukning yetkazib berilganligi haqida xabar berilishi lozim bo'lgan istalgan shaxsning nomi, manzili, teleks/telefon raqamini va aviayukxatiga ilova qilinadigan hujjatlar nomini ko'rsatishi kerak.

(19) - DATE AND SIGNATURE (Sana va imzo)

Yuk jo'natuvchi hujjatni imzolashi va yo'riqnoma blankasini to'ldirgan sanani ko'rsatishi kerak.

Bu bilan u tashuvchiga uning nomidan aviayukxatini to'lg'azishiga vakolat beradi va aviayukxatining orqa tomonida ko'rsatilgan shartnoma shartlariga roziligini tasdiqlaydi.

SHIPPER'S LETTER OF INSTRUCTIONS FOR ISSUING AIR WAYBILL

SHIPPER ①
CONSIGNEE ②



You are hereby requested and authorised upon receipt of the consignment described herein to prepare and sign the Air Waybill or to create a Shipment Record if so authorised and other necessary documents on our behalf and dispatch the consignment in accordance with your Conditions of Contact.

I certify that the contents of this consignment are properly identified by name. Insofar as any part of the consignment contains dangerous goods, such part is in proper condition for carriage by air according to the applicable Dangerous Goods Regulations.

Airport of Departure ③	Airport of Destination ④
REQUESTED ROUTING ⑤	
REQUESTING BOOKING ⑥	

MARKS AND NUMBERS ⑧	NO. & KIND OF PKGS. ⑨	DESCRIPTION OF GOODS ⑩	GROSS WEIGHT ⑪	MEASUREMENT ⑫
AIR FREIGHT CHARGES ⑬ (Mark one to apply)		OTHER CHARGES AT ORIGIN ⑭ (Mark one to apply)		INSURANCE - AMOUNT REQUESTED ⑮
<input type="checkbox"/> PREPAID <input type="checkbox"/> COLLECT (if Service Available)		<input type="checkbox"/> PREPAID <input type="checkbox"/> COLLECT (if Service Available)		
DECLARED VALUE				
For Carriage ⑯		For Customs ⑰		
HANDLING INFORMATION AND REMARKS ⑱			DATE ⑲	
			SIGNATURE	